

O'ZBEKİSTON

TIL VA MADANIYAT

UZBEKİSTAN

LANGUAGE & CULTURE

ISSN 2181-922X

2024 Vol. 2

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

ISSN 2181-922X

O'ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN:

LANGUAGE AND CULTURE

2024 Vol. 2

www.navoiy-uni.uz

www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir:	Shuhrat Sirojiddinov
Bosh muharrir o'rinnbosari:	Nodir Jo'raqo'ziyev
Mas'ul kotib:	Ozoda Tojiboyeva

Tahrir kengashi

Hamidulla Dadaboyev, Mustafo Bafoyev, Samixon Ashirboyev, Shodmon Vohidov (Tojikiston), Qozoqboy Yo'ldoshev, Farkhad Maqsudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ülvi (Ozarbayjon), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jo'raqulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Nozliya Normurodova, Odinaxon Jamoldinova, Ziyoda Teshaboyeva.

.Tahrir hay'ati

Nazef Shahrani (AQSH)	Abdulaziz Mansur (O'zbekiston)
Elizabetta Ragagnin (Italiya)	Timur Xo'jao'g'li (AQSH)
Ahmadali Asqarov (O'zbekiston)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Xisao Komatsu (Yaponiya)
Akmal Nur (O'zbekiston)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Nikolas Kantovas (Buyuk Britaniya)
Bahtiyor Aslan (Turkiya)	Akmal Saidov (O'zbekiston)
Emek Üşenmez (Turkiya)	Mark Toutant (Fransiya)

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiylar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief: Shuhrat Sirojiddinov

Deputy Editor in Chief: Nodir Jurakuziev

Executive secretary: Ozoda Tajibaeva

Editorial board

Hamidulla Dadaboev, Mustafo Bafoev, Samikhan Ashirboev, Shodmon Vohidov (Tajikistan), Qozoqboy Yuldashev, Farhad Maksudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ülvi (Azerbaijan), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyoziyeva, Aftondil Erkinov, Uzoq Jurakulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Nozliya Normurodova, Odinakhan Jamoldinova, Ziyoda Teshabaeva.

Editorial Committee

Nazif Shahrani (USA)	Abdulaziz Mansur (Uzbekistan)
Elisabetta Ragagnin (Italy)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ahmadali Asqarov (Uzbekistan)	Tanju Seyhan (Turkey)
Isa Habibeyli (Azerbaijan)	Hisao Komatsu (Japan)
Akmal Nur (Uzbekistan)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Akrom Habibullaev (USA)	Nicholas Kontovas (Great Britain)
Bahtiyar Aslan (Turkey)	Akmal Saidov (Uzbekistan)
Emek Üşenmez (Turkey)	Marc Toutant (France)

"Uzbekistan: Language and Culture" is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Samixon Ashirboyev, Janat Aymuhambet	
Turkiy til strukturasi mahalliy ziyolilar talqinida.....	6
Munavvara Qurbanova	
Bolalar nutqiga xos illokutiv aktlarning semantik tasnifi.....	18
Gulnoraxon Niyazova	
Detektiv fantastikadagi pragmatik moslashuv.....	32
Afag Gemberova, Gulgun Huseynli	
Tilshunoslikda yangi fundamental tushuncha: “Dunyoning til manzarasi.....	56
Jumanazar O’rozov	
Sud-tergov jarayoni bilan bog’liq yozma matnlarning identifikatsion lingvistik belgilari xususida.....	68
Sanjar Islomov	
Milliy va anglosakson ilmiy kontekstlarida lingvokulturologiya.....	83
Kamaraddin Davletov	
Olamning hissiy-konseptual manzarasi, hissiyotlar va qo’rquv konsepti.....	106
 Adabiyotshunoslik	
Shahlo Hojiyeva	
Sharq-u G’arb ma’rifatchilik adabiyotining uyg‘unligi va o’ziga xosligi.....	120
Oynisa Hojiyeva	
Özbek – Türk Atasözlerinin Karşılaştırmalı Analizi.....	138

CONTENT

Linguistics

Samikhan Ashirbaev, Janat Aymuhambet

Turkish Language Structure in the Interpretation of Local Intellectuals.6

Munavvara Kurbonova

Semantic classification of Illocutionary acts Characteristic of Children's.....18

Gulnorakhon Niyazova

Pragmatic Adaptation in Detective Fiction.....32

Afag Gemberova, Gulgum Huseynli

A new Fundamental Concept in linguistics: "Language Landscape of the World".....56

Jumanazar Urozov

On the identification Marks of Manuscript Texts Relating to the Judicial Process.....68

Sanjar Islomov

Linguoculturology in National and Anglo-Saxon scientific contexts. Comparative analysis.....83

Kamaraddin Davletov

Emotional-conceptual picture of the world, emotions and the Concept of Fear.....106

Literature

Shahlo Hojiyeva

The Harmony and Uniqueness of the Literature of the East-West Enlightenment.....120

Oynisa Hojievа

Comparative Analysis of Uzbek – Turkish Proverbs.....138

Olamning hissiy-konseptual manzarasi, hissiyotlar va qo'rquv konsepti

Kamaraddin Davletov¹

Abstrakt

Inson mohiyatini o'rganishga antroposentrik yondashuv zamonaviy tilshunoslik fanining eng muhim rivojlanayotgan yo'naliishlaridan biridir. Antroposentrik yo'naltirilgan tilshunoslikni, XX asr o'rtalarida tilni insondan tashqarida, odamni esa tildan tashqarida tadqiq qilishga asoslangan strukturalizmga, tilshunos olimlarning o'ziga xos reaksiyasi sifatida paydo bo'ldi deyish mumkin. Hissiyotlar tilini o'rganishga fanlararo yondashuvlarning integratsiyasi bizga his-tuyg'ularning tilda ifodalanishining obyektiv manzarasini ochish va nutq subyekti tomonidan voqelikni hissiy va intellektual talqin qilinish jarayonlarini konseptual modellashtirish asoslarini aniqlash imkonini beradi. Shunga ko'ra maqolada hozirgi kunda ko'p qo'llanilayotgan "olamning manzarasi", "olamning lisoniy manzarasi", "olamning hissiy-lisoniy manzarasi" kabi terminlarni sharhlashga harakat qilingan. Shuningdek, inson kechinmalari tizimida hissiyotning tutgan o'rni, turlari tasniflab berilgan.

Kalit so'zlar: *olamning lisoniy manzarasi, olamning hissiy-lisoniy manzarasi, hissiyotlar, bazis hissiyotlar, qo'rquv tutlari tasnifi.*

Kirish

Tilshunoslik fanining hozirgi taraqqiyot bosqichida, insonga voqelik markazida turuvchi obyekt sifatida qarovchi yangi antroposentrism yo'naliishi maydonga keldi. Endilikda tilshunos olimlar e'tibori inson tafakkuri va uning til orqali amalga oshadigan borliq, voqelik bilan munosabatini o'rganishga qaratilgan. So'nggi yillarda tilshunoslikda "*olamning manzarasi*", "*olamning lisoniy manzarasi*", "*olamning hissiy-lisoniy manzarasi*" kabi yangi terminlar qo'llanila boshlandi.

Tilshunoslar "*olamning manzarasi*" terminini turlicha izohlashadi. M. Xaydegger fikricha, "*manzara*" so'zi ostida avvalo

¹Davletov Kamaraddin Kurbonboyevich – tayanch doktorant, Urganch davlat universiteti.

E-mail: k.k.davletov@gmail.com

ORCID ID: 0009-0004-2079-2903

Iqtibos uchun: Davletov, K. K. 2024. "Olamning hissiy-konseptual manzarasi, hissiyotlar va qo'rquv konsepti". *O'zbekiston: til va madaniyat* 2: 106 – 119.

nimaningdir tasviri tushuniladi, ammo lingvistikada “*olamning manzarasi*” haqida gap ketganda biror manzara tasviri emas, balki tushunchalar, tasavvurlar, obrazlar va assotsiatsiyalar majmuyi anglashiladi” [Xaydegger 1993, 103]. “*Olamning manzarasi*” til, urfodatlar, tarbiya va shu kabi boshqa ijtimoiy omillar ta'siri ostida shakllanadi va obyektiv voqelikning inson ongidagi aksi hisoblanadi. “*Olamning manzarasi* inson psixikasida aks etgan va kognitiv tizim tarkibidagi bilim va obrazdir” [Leontev 1993, 18]. “Olamning manzarasi insonning voqelik to'g'risidagi umumiy tasavvurlarini jamlovchi mental faoliyati natijasi, u shaxs ongidagi ideal-konseptual tuzilmadir, u belgilar va til vositasida ifodalanadigan ong elementi sifatida tushuniladi” [Utrubina 1997, 72].

Y.S.Kubryakova fikricha, “*olamning manzarasi*” asosida insonning obyektiv voqelik to'g'risidagi bilimlari yotadi. Bu bilimlar shaxs dunyoqarashini shakllantiradi. U o'z tadqiqotlarida “olamning manzarasi”ni moddiy va ma'naviy olamni birlashtirgan ma'lum tarkib, hamda inson bilimi va tasavvurlari yig'indisi sifatida izohlaydi [Кубрякова 1994, 66].

Dunyo to'g'risidagi bilimlar oshgani sayin subyekt ongida “olam manzarasi” kengayishda davom etadi. “Olam manzarasi”ning hissiy tomonini tushunish anchayin qiyinchilik tug'diradi. Bu qiyinchilik natijasida yangi “*olamning hissiy (emotional) konseptual manzarasi*” termini paydo bo'ldi [Мягкова 1996, 178]. S.V.Minibayeva fikricha, dunyo to'g'risidagi tasavvurlar shaxs (subyekt) hissiyotlari bilan bog'liq. Masalan, “qo'rqqanga qo'sha ko'rinar” maqolida qo'rquvga tushgan individ ongidagi “*olamning konseptual manzarasi*” aks etgan: qo'rquv ta'siri ostida subyekt ongida shunday tasavvur paydo bo'ladiki, har qanday obyekt unga xavf solayotgan-dek bo'ladi, ya'ni “*konseptual manzara*” hissiyot ta'siri ostida o'zgaradi.

Asosiy qism

Shaxs ongida “*olamning konseptual manzarasi*” shakllanishi murakkab, ko'p bosqichli jarayon. Bu jarayonda quyidagi bosqichlar mavjud:

- 1) yangi axborotni sezish va idrok etish bosqichi;
 - 2) fikrlash faoliyati yordamida idrok etilgan axborotni anglash bosqichi;
 - 3) shaxs ongida “*olamning manzarasi*” shakllanishi bosqichi.
- Barcha bosqichlar ketma-ket sodir bo'ladi. Uning o'zgarish tezligi guruh, jamoa va xalq, lisoniy madaniyat vakillariga nisbatan

yuqoriroqdir. Shaxs ongidagi “olam manzarasi” o’zgarishining sabablardan biri – bu uning hissiy holatidir, chunki hissiyotlar inson dunyoqarashiga kuchli ta’sir o’tkazadi. Ammo inson tafakkuri ham “olamning manzarasi” shakllanishida muhim rol o’ynaydi. Shuningdek, “olamning manzarasi” subyektning dunyo haqidagi bilimlariga ham bog’liq, bilim yetarli bo’lmasa, “olamning manzarasi” to’liq bo’lmaydi

Demak, olamning *hissiy-konseptual* manzarasi hissiy tasavvurlar, tushunchalar va konseptlar yig’indisidir. Ular tilda ifodalanib, murakkab mazmunga ega bo’ladi. Olamning hissiylisoniy manzarasini tashkil qiluvchi komponentlar inson tomonidan ishlab chiqiladi. Boshqacha aytganda, borliq fragmentlarini mental o’zlashtirish insonning tasniflash, kategoriyalash faoliyati orqali amalga oshadi. Olamning hissiy-lisoniy manzarasi bilish jarayonida baholash vazifasini o’taydi. Biroq tadqiqotchilar hissiyotning mohiyati to’g’risida yakdil fikrda emaslar. Tadqiqotchilar fikricha, hissiyotlar qisqa muddatli kayfiyatlar bilan bog’liq. “Kayfiyat va hissiyotlarning umumiyligini xususiyati shuki, ular reaksiya sifatida vujudga keladi” [Mayer & Salovey 1988, 88]. Farqli xususiyati esa kayfiyatni ifodalovchi so’zlarning hissiyotni ifodalovchi so’zlarga qaraganda kamligida bo’lsa kerak. Demak, umumiyligini kayfiyatning informatsion qiymati hissiyotning informatsion qiymatiga solishtirganda birmuncha chegaralangan.

Klassik nazariya asoschilari bo’lgan pisixologlar (V. Vundt, U. Jems, R. Plutchik, K. Izard va boshqalar) bazis hissiyotlar tasnifini taqdim etishgan. Jumladan, N. A. Krasavskiy *qo’rquv, shodlik, jahli va qayg’uni* bazis hissiyotlar qatoriga kiritadi.

Ba’zi olimlar hissiyotlarni bazis hissiyotlarga ajratishga e’tiroz bildirishadi, ular hissiyotlar mohiyatida faqat kognitiv jarayonlarni ko’rishadi. Ularning fikricha, hissiyotlar shaxs hayotiy tajribasi, madaniyati va bilimi asosida paydo bo’ladi. K. Izardning fikri bu qarashga zid. Uningcha, bu tarzda hissiyotlar paydo bo’lishi faqat affektiv-kognitiv struktura doirasida bo’lishi mumkin. K. Izard bazis hissiyotlarni tasniflashda quyidagi mezonlarni taklif etadi:

1. Bazis hissiyotlar aniq, o’ziga xos nerv substratlariga ega.
2. Bazis hissiyotlar yuz mushaklarining o’ziga xos ekspressiv konfiguratsiyasi bilan tavsiflanadi.
3. Bazis hissiyotlarning kechishini insonning o’zi his qiladi.
4. Bazis hissiyotlar biologik-evolyutsion jarayonlar nati-jasida paydo bo’lgan.

5. Bazis hissiyotlar insonning moslashuvchanlik qobiliyatini oshiradi.

Izardning fikricha, shodlik, hayron qolish, qayg'u, jahl, nafrat va qo'rquv bazis hissiyotlarga kiradi [Izard 2002, 64].

Uyalish, tortinchoqlig, va gunohkorlik hislari ham bazis hissiyotlar hisoblanadi, gunohkorlik hissi mimik xususiyatlarga ega emas.

Nemis psixoanalitigi R. Plutchik ta'kidlashicha, qo'rquv, shodlik va mammunlik ilk oddiy hissiyotlar bo'lgan. Keyinchalik madaniyat va sivilizatsiya taraqqiyoti tufayli ikkilamchi hissiyotlar paydo bo'lgan, jumladan, gunohkorlik hissi ham [Plutchik 1998, 354]. Psixoanalistik F. Rimann ushbu fikrga qo'shiladi. U qo'rquvni universal hissiyot deb hisoblaydi: "Qo'rquv barcha madaniyat va xalqlarga xos hamda bir xil xususiyatlarga ega, faqat qo'rquvni chaqiruvchi obyekt turlicha bo'lishi mumkin" [Riman 1998, 114]. Xulosa qilib aytish mumkinki, bazis hissiyotlar kelib chiqishiga ko'ra oddiy, tabiatiga ko'ra elementardir.

Yuqorida sanab o'tilgan mualliflarning hissiyotlar inson mental tizimi asosini tashkil qiladi, inson faoliyatini boshqarib, uni ma'lum yo'nalishga soladi degan fikrlariga qo'shilamiz. Hissiyotlar, instinkt va reflekslardan farqli ravishda kishilar orasida muloqot vositasini bajaradi. Hissiyotlar nafaqat bitta sotsium ichidagi kishilar orasida, balki turli madaniyat vakillari orasida ham ijtimoiy munosabatni ta'minlaydi. Garchi hissiy kechinmalar shaxsiy bo'lsa ham uning mimik – ishoraviy majmuyi va ifoda komponenti ijtimoiydir.

Hissiyotga berilgan ko'pgina ilmiy ta'riflar orasida M.E. Litvak tomonidan berilgani ko'proq diqqatga sazovor. U qisqaligi, lo'ndaligi ammo purma'noliligi bilan ajralib turadi: "Hissiyotlar psixik jarayon bo'lib, insonning o'z-o'ziga va tashqi muhitga bo'lgan munosabatini aks ettirib turadi" [Литвак 1993, 60]. Hissiyotlar mimik, psixosomatik o'zgarishlar bilan xarakterlanadi va bu o'zgarishlar tilda namoyon bo'ladi.

Qo'rquv konsepti

Qo'rquv bazis emotsiyalar qatorida turadi (K. Izard, R. Kempinelli, M. Ye. Litvak, M. Monten, V.I.Shaxovskiy, Yu.S. Sherbatyx, D. Golemann va b.) va ham tug'ma, ham orttirilgan hissiyotdir. Tug'ma qo'rquv hissiyotining eng oddiy darajasidir. Bu hissiyot o'z rivojlanishi mobaynida instinctiv asosi atrofida yanada murakkabroq xarakter kasb etadi va bir qancha ko'rinishga ega bo'ladi. Inson

hissiyoti asosini tashkil etuvchi ijtimoiy, estetik – intelektual omillar ham bu hissiyotga ta'sir o'tkazadi [Леонтьев 1984, 162 - 172].

Inson qo'rquvni his qilganida u tushadigan holatlarni oldindan ko'ra bilish mumkin: u yoki qochib qutuladi, yoki harakatsiz qotadi yoki hujumga shaylanadi. Qo'rquv reaksiyasi yer yuzida yashovchi barcha mavjudotlarga xos, ammo uni his qilish darajasi hamma uchun bir xil emas. Masalan, biror bir hashoratning jig'iga tegsangiz, u yo qochib ketadi, yo bo'lmasa turgan joyida harakatsiz turib qoladi. Xuddi shunday reaksiyani insonda ham (masalan, birorta xavfga duch kelganida) kuzatish mumkin, shuning uchun "*dahshatdan qotib qoldi*", "*o'zini yo'qotib qo'ydi*" iborlari mavjud. Inson qo'rquvga tushganida qochish yoki hujum qilish holatiga yaqin turadi, lekin inson ijtimoiy mavjudotdir, shu tufayli u jamiyat tomonidn qabul qilingan me'yoriy qoidalarga rioya etishg majbur, bu esa insonni turli xatti-harakatlardan asraydi. Insonning xavf solayotgan obyektni nisbatan hujum qilishi jamiyat a'zolari tomonidan muhokama qilinib, qoralanishi mumkin, balki aynan shuning uchun tilda qo'rquv holatida hujumga o'tishni anglatadigan til birliklari juda kamdir. Demak, qo'rquvga tushishga sabab bo'lgan obyektdan uzoqlashish maqsadga muvofiq.

Fiziologik jihatdan qo'rquv inson vegetativ-gormonal asab tizimiga ta'sir o'tkazuvchi eng kuchli hissiyot hisoblanadi. Ba'zan bu ta'sir shu darajada kuchli bo'ladiki, hatto o'limga ham sabab bo'lishi mumkin. "*Qo'rquvdan yuragi tars yorildi*" iborasi quruq gap emas, chunki qo'rquv ta'sirida fiziologik reaksiyalar boshlanib, inson organizmini harakatga keltiradi. Bu harakatlar oqibatida inson yoki qo'rquvdan xalos bo'ladi yoki qo'rquv insonni chulg'ab olib, salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Qo'rquvni qo'zg'atuvchi signal vegetativ-gormonal asab tizimi orqali qabul qilinganidan keyin qo'rquv hissi yanada kuchayadi, bu o'z navbatida insonning o'z-o'zini himoya qilish faoliyatini ham kuchaytiradi, natijada organizm qo'rquv holatidan chiqishga harakat qiladi, shundan keyingina organizm tinchlana boshlaydi. Qo'rquv qanchalik kuchli bo'lsa, shuncha inson tafakkur faoliyatini to'xtatib qo'yadi. Shuning uchun ham inson qo'rquv holatida maqsadsiz xatti-harakatlar bajarishi kuzatiladi: u yoqdan bu yoqqa yurish, stolni barmoq bilan chertish, tana a'zolaridan birortasining (qo'l, oyoq va h.k.) tinimsiz ritmik harakati va shu kabi harakatlar. Bu harakatlarni qo'rquvning noverbal ko'rinishi deyish mumkin. Qo'rquv, shuningdek, bir kishidan boshqa bir kishiga tez o'tishi mumkin, qo'rquvning bunday "yuqumliligi" haqida Y. I. Ivleva, M. Y. Litvak, Y. V. Sherbatyx kabi

tadqiqotchilar ta'kidlab o'tgan.

Qo'rquv nafaqat bazis / asosiy hissiyot, balki eng intensiv hissiyot hamdir. Mashhur faylasuf, yozuvchi va psixologlarning fikrlari bunga isbot bo'ladi. Qo'rquv "eng kuchli" (Litvak) va "eng xavfli" (Izard, Sherbatyx) hayratlanarli hissiyotdir, chunki boshqa biror hissiyot inson aql-idrokini bu qadar izdan chiqara olmydi. Aytishlaricha, qo'rquv kuchlilarni ojiz, aqllilarni ahmoq qilib qo'yadi. "Qo'rquv hissidan-da qo'rqinchliroq hech narsa yo'q" (Bekon).


Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, qo'rquvni salbiy hissiyotlar qatoriga kiritish mumkin, biroq ijobjiy tomonini ham unutmaslik lozim. Qo'rquv insonlarni birlashtiradi, birdamlikda harakat qilishga chorlaydi, xavfli vaziyatlarga tushishdan asraydi. Qo'rquv hissiyoti barcha hissiyotlar kabi sababiyat, intensivlik va davomiylikka ega hamda baholash, yo'naltirish, quvvatlash, kompensatorlik va ayniqsa, adaptatsiya (moslashtirish) kabi vazifalarini bajaradi.

Qo'rquv turlarining tasniflanishi

Qo'rquv tabiatiga ko'ra keng qamrovli va xilma-xildir. Qo'rquv insonning butun hayoti davomida u bilan birga, faoliyatining har jabhasida u bilan yonma-yon rivojlanadi va paydo bo'lish sabablari qatorini kengaytiradi. Dastlabki primitiv, biologik qo'rquv biror-bir xavf yuzaga kelganda paydo bo'ladi. Jamiyat rivojlanishi bilan ijtimoiy qo'rquv turi paydo bo'lgan. Hozirda inson momaqaldiroq, o't yoki yirtqich hayvonlardan emas, balki kambag'allik, kasalliklar va jinoyatchilardan qo'rqedir. Qo'rquv "yopishqoq" hissiyotdir, uning paydo bo'lishi nisbatan oson, undan qutulish esa birmuncha qiyindir [Щербатых 2007, 512]. Psixologiya rivoji tufayli qo'rquvning intensivligini, normal va patalogik turlarini kuzatish imkonini paydo bo'ldi.

Qo'rquv qanchalik aniq tushuncha bo'lsa, shunchalik mavhum tushuncha hamdir. Shunga qaramay, uni paydo bo'lish sababiga asoslanib tasniflash mumkin. Qo'rquvni uyg'otuvchi sababiyat tashqi (insonga bog'liq bo'lмаган) va ichki (insonning o'zi tomonidan o'ylab topilgan) bo'lishi mumkin. Demak, bu mezon bo'yicha qo'rquvni quyidagicha tasniflash mumkin.

1-tarx




Biologik qo'rquv ijtimoiy qo'rquvga nisbatan qadimiyroq bo'lib, uni irsiy qo'rquv deb atash ham mumkin. Ushbu qo'rquv yirtqich hayvonlar, tabiy ofatlar va turli tabiat hodisalari kabi omillar ta'siri oqibatida paydo bo'lgadi. Bu qo'rquv turi ijtimoiy yoki ichki qo'rquvdan farqli o'laroq, barcha mavjudotlarga xos. "Hayvonlar faqat aniq xavf-xatardan qo'rqadi, inson esa tasavvuri natijasi bo'lmish xayoliy xatardan ham qo'rqadi" [Sherbatyx 2007].

Insonda psixologik jarayonlar tufayli paydo bo'ladigan qo'rquvga ichki qo'rquv deyish mumkin. Bu qo'rquv inson xayoloti oqibatida vujudga keladi. Shu tarzda qorong'ulikdan, xayoliy hodisalardan, kutilmagan xatti-harakatlardan qo'rqish yuzaga keladi. Fikrimizcha, ichki qo'rquv doirasida hayotdan, o'limdan, kelajakdan, umuman mavjudlikdan qo'rqish kabi falsafiy aspektlarni ko'rib chiqish mumkin. Bu qo'rquvlar negizida real sabablar bo'lmasligi ehtimoldan xoli emas, ular inson tafakkuri faoliyati natijasidir va ular faqat inson tasavvurida mavjud, moddiy xarakter kasb etmaydi.

Ichki va tashqi qo'rquv orasidagi farq ham ana o'shanda: tashqi moddiy qo'rquv vaqtinchalik, undan qutulish mumkin, ichki qo'rquvdan esa aynan uning nomoddiyligi sababli xalos bo'lish mushkul. Qo'rquvni his qilmagan birorta kishi bo'lmasa kerak. Qo'rquv qaysidir darajada ijobiy rol ham o'ynaydi, chunki u insonning himoya tizimini ishga soladi, vaziyatdan chiqib ketishga undaydi yoki aksincha salbiy oqibatga olib keladi, sarosimaga soladi, fikrlash tartibini izdan chiqaradi, pala-partish harakatlarga sababchi bo'ladi. Qo'rquvni tasniflashdagi boshqa mezonlardan biri – uning normal yoki patalogik ekanligidir.

2-tarx.




M. Y. Litvakning fikricha “normal va patalogik qo'rquv orasidagi chegarani aniqlash o'ta mushkul” [Litvak 1993, 60], balki psixiatriya nuqtayi nazaridan buni aniqlash mushkuldir, ammo fikrimizcha, qo'rquvning inson ruhiyati va o'zini tutishiga ta'sir darajasidan kelib chiqib normal yoki patalogik ekanligini bilish mumkin. Misol uchun, biror kishi omma oldidan so'zga chiqishdan oldin, biror imtihondan o'tishdan oldin qo'rqlasadi va buni o'zi anglasa bu – normal qo'rquv. Agar qo'rquv inson irodasiga bo'ysunmasa va doimiyligi bilan ajralib tursa, buni patalogik qo'rquv deyish mumkin. Bunga fobiyalar yorqin misol bo'la oladi. Fobiyalar normal qo'rquvdan ko'ra ko'proq inson salomatligiga yomon ta'sir o'tkazib, uyqu buzilishi, mushaklar taranglashuvi va vegetativ asab tizimining izdan chiqishiga olib keladi [Psixiatriya 1998, 368].

Yuqorida aytib o'tilgan qo'rquv turlari orasidagi farq ularni anglab nazorat qila olish darjasida normal qo'rquvni anglash va nazorat qilish mumkin, fobiyani esa nazorat qilib bo'lmaydi.

Tadqiq qilinayotgan hissiyotni tasnif qilishdagi yana bir mezon, bu – qo'rquv hissining davomiylik muddati.

3-tarx.



Qo'rquvning bunday bo'linishi barcha hissiyotlarga xos. K.Izard aytib o'tganidek, “har qanday hissiyot, boshqa xususiyatlari bilan bir qatorda, barqarorlik va o'zgaruvchanlik sifatlari bilan izohlanadi [Izard 2000, 450]. Qo'rquvga keladigan bo'lsak, qisqa muddatli vahimani o'zgaruvchanlik, uzoq muddatli “qo'rkoq”likni ushbu hissiyotning barqarorlik sifati deyish mumkin. Qo'rquvning namoyon bo'lish darjasasi har bir shaxsda har xil – kimdir tezda qo'rquvga tushadi, kimdir sekin. Demak, qo'rquvni tasniflashda uning intensivlik xususiyatini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik


kerak. Har bir kishi qo'rquvni turli vaziyatlarda turlicha kuchda his qiladi. Bu hissiyotni chorlovchi sabab darajasi, insonning hissiyotga beriluvchanlik darajasi kabi bir qator omillar tufayli qo'rquv ham bir qancha turga bo'linadi: *cho'chish* (eng oddiy daraja), *vahima, dahshat* (eng kuchli daraja) kabi.

Anna Vejbiskayaning madaniy konseptlar yuzasidan olib borgan tadqiqotlarining natijasi shuni ko'rsatadiki, hissiyotlar madaniyat bilan chambarchas bog'liq, chunki qo'rquvni ifodalovchi so'zlar kognitiv ssenariylar bilan bog'liq. Ular (kognitiv ssenariylar) esa o'z navbatida barcha uchun universal bo'lmish inson biologiyasi tomonidan emas, balki kishilar taalluqli bo'lgan madaniyat, ma'naviyat tomonidan yaratilgan.

Qo'rquv eng kuchli [Sherbatyx 2011, Izard 2000], eng xavfli [Litvak 1993] hissiyot ekan, demak uni ma'lum maqsadda, biror kishini ataylab manipulyatsiya qilish uchun qo'rquvga solishi mumkinligiga ajablanmasak ham bo'ladi. Bunday holatda qo'rquv tub fiziologik sabab tufayli emas, balki psixologik ta'sir o'tkazish oqibatida yuzaga keladi. Bu vaziyatda qo'rquv inson o'limiga sababchi bo'lishi ham mumkin.

Qo'rquvni tasniflashdagi yana bir muhim mezonlardan biri – bu uni his qilish paytiga bog'liq.

4-tarx.



Bu tasnifdagi lahzalik qo'rquv xavf-xatar yuzaga kelgan paytdayoq his qilinadi. Ba'zan shunday vaziyatlar ham bo'ladi, qo'rquv xavf-xatar o'tib ketganidan keyin his qilinadi. Bu qo'rquv kechikkan bo'lishiga qaramasdan, uning ta'siri kuchli va uzoq bo'ladi: inson yana shunaqa vaziyat bo'lishidan qo'rqiб yashaydi. Qo'rquvning kechikishiga sabab, u boshqa bir kuchli hissiyot – jahl, g'azab, asab buzilishi kabi boshqa affekt soyasida qolib ketadi va ular o'tib bo'lganidan keyin his qilinadi. Psixiatriyada qo'rquvning ushbu turiga "poststress xavotirlanish" deyiladi [Psixiatriya 1998, 368]. Qo'rquvning bu turini "qayta tiklangan" qo'rquv deyish ham mumkin. Qo'rquv holatida kishining idrok etish retseptorlari – eshitish, taktil va ko'rish – o'tkirlashadi. Agar biror kishiga ko'chada

hujum qilishgan bo'lsa, shu holatni eslatadigan neytral vaziyat ham bu kishida qo'rquv uyg'otishi mumkin. "Qayta tiklangan" qo'rquvga misol berishga harakat qilamiz: urush veterani, nafaqat urush paytining o'zida, balki urushni eslaganda ham qo'rquvni his qiladi. Qo'rquvni tasniflashdagi ko'p sonli mezonlar (paydo bo'lish sababiga ko'ra, normal yoki patalogik, intensiv yoki lahzalik) mavjudligi tadqiq qilinayotgan konseptning ko'p qirrali ekanligini tasdiqlaydi. Boshqa bir qator mezonlarni ham ko'rib chiqishimiz mumkin edi, ammo ular chuqur psixologik xarakterga ega bo'lib, tilshunoslikdan yiroq.

Yuqorida ko'rib chiqqanimiz, qo'rquv tasnifi ozmi-ko'pmi darajada tilda – leksik maydonda, til uslubiy vositalarida, paremiologik va frazeologik qatlamlarda o'z ifodasini topgan. Shuni aytib o'tish kerakki, hissiyotlar yakka holda uchramaydi, ya'ni inson ma'lum vaziyatlarda bir necha hissiyotni bir paytning o'zida boshidan kechirishi mumkin. Bunday vaziyatni "hissiyotlar kompleksi" (Shaxovskiy 1995) deb atash mumkin va uning markazida qaysidir hissiyot dominant hisoblanadi. Hissiyotlar o'rni shunchalik tez almashadiki, natijada, inson faqat dominant hissiyotni eslab qoladi, qolgan hissiyotlar unutiladi. Bizning fikrimizcha, markazida qo'rquv hissi turgan "hissiyotlar kompleksi"ni o'rganish lozim.

Xulosa

Umuman olganda, hissiyotlarnii o'rganish tarixi psixologiya fani rivojlanish bosqichi bilan izohlanadi. Zamonaviy lingvistik adabiyotlarda hissiyotni izohlashda asosan ikikta yondashuv ko'zga tashlanadi: ma'noviy va metaforik. Ma'noviy yondashuv hissiyot paydo bo'lgan vaziyatni izohlaydi va o'sha vaziyat to'g'risidagi axborotga asoslanadi. Metaforik yondashuv esa individda hissiyot tufayli paydo bo'lgan fiziologik o'zgarishlarga asoslanadi.

Biroq V. Y. Apresyan va Y. D. Apresyanlar fikricha, bu ikkita yondashuv hissiyot leksikasini izohlashda haqqoniy emas [Apresyan 1993, 28-30]. Shunday qilib, mualliflar fikricha bu ikkala semantik yondashuvlar hissiyotning adekvat leksikografik tasvirini bera olmaydi: 1) hissiyot xususiyatlarini to'liq aks ettirmaydi; 2) hissiyot "simptoma"larini izohlovchi semantik vositalar kamligi. Fikrimizcha, hissiyotlarni izohlashda ma'noviy va metaforik yondashuvlarning har ikkalasini qo'llash maqsadga muvofiq.

K. Izardning nuqtayi nazariga ko'ra aynan hissiyotlar shaxs ongi poydevorini tashkil qiladi va uning hayot tarzini belgilab beradi. Hissiyotlar ongda yorqin namoyon bo'lmasligi, uning ta'siri

birdan bilinmasligi mumkin. Ammo bu ta'sir aniq xatti-harakatlar jaryonida ko'zga tashlanishi mumkin.

Ma'lumki, ong oddiy holatda ham hissiylikning qandaydir darajasi bilan izohlanadi. Bunga asoslangan holda shuni aytish mumkinki, shaxsning predmet-hodisalarni idrok etishida hissiyot yoki hissiyotlar kompleksi bu jarayonga ta'sir o'tkazadi. Buning oqibatida ongga yetib kelgan axborot o'zgarib ketishi ham mumkin. Hissiyotlar ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm bilish va somatik sezgi a'zolariga ta'sir o'tkazishga qodir. Hissiyotlar ong mahsuli, tafakkurning asosiy omili hisoblanadi. Hissiyotni anglash mumkin, biroq har doim ham uni aniqlab bo'lmaydi. Bizning dunyoni ruhan qabul qilishimiz istak-xohishlarimizga asolanadi, istak-xohishlarimiz esa hissiyotlarimizga tayanadi. Ittelson, Kilpatrick ta'kidlab o'tganidek, idrok etilgan narsa o'sha narsaning absolyut aksi bo'lmaydi, biz predmet, voqeа-hodisalarni emas, o'zimizning shaxsiy fikrimizga asoslangan dalillarni ko'ramiz. Ular bizning xatti-harakatlarimizga g'oya beradi. Tadqiqotchilarning hissiyot to'g'risidagi izohlaridan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, hissiyotni izohlashda va tasniflashda yakdil fikr mavjud emas. Hissiyotlar ma'lum fiziologik jarayonlar natijasi deb xulosa qilamiz. Ular tashqi va ichki omillar natijasida paydo bo'ladi. Ularni izohlashda fiziologik, empirik va ekspressiv komponentlarni hisobga olish zarur.

Adabiyotlar

- Брутян, Г. А. 1976. "Языковая картина мира и ее роль в познании". Методологические проблемы анализа языка. сб. ст. Ереван: Изд-во Ереван.
- Вайсгербер, Л. 1993. Родной язык и формирование духа. Москва: Наука.
- Вилюнас, В. К. Основные проблемы психологии эмоций. Москва: Изд-во «Питер».
- Гудков, Д. Б. 1998. Научные доклады филологического факультета МГУ, Том: 21998. Изд-во Московского университета. Москва.
- Джемс, У. 1984. Что такое эмоция Москва: Изд-во МГУ.
- Додонов, Б. И. 1975. "Классификация эмоций при исследовании эмоциональной напряженности личности". Вопросы психологии, 6. Москва: Школа-Пресс.
- Жинкин, Н. И. 1982. Реч как проводник информации. Москва: Наука.
- Изард, К. Е. 2000. Психология эмоций. Перев. с англ. СПб.: Питер.
- Илин, Е. П. 2001. Эмоции и чувства. СПб.: Питер.
- Колшанский, Г. В. 1990. Объективная картина мира в познании и языке. Москва: Наука.
- Красавский, Н. А. 2008. Эмоциональные концепты в немецкой и рус-

- ской лингвокультурах. М.: Гноэис.
- Красных, В. В. 2003. Языковая картина мира. «Свой» среди «чужих»: миф или реальность? Москва: Гноэис.
- Кубрякова, Е. С. 1994. “Начальные этапы становления когнитивизма: лингвистика - психология - когнитивная наука”. Вопросы языкоznания 4.
- Леонтьев, А. Н. 1983. Образ мира. Избранные психологические произведения, Москва: Педагогика.
- Липер, Р. 2002. Мотивационная теория эмоций. Хрестоматия по общей психологии: в 2 книгах. Рига: Высшая школа психологии.
- Маслова, В. А. 1991. Параметры экспрессивности текста. Человеческий фактор в языке. Языковые механизмы экспрессивности. Москва: Наука.
- Минибаева, С. В. 2007. Лингвоанализ текста: практикум исследования эмотивного текста. Москва: СГПА.
- Мягкова, Е. Ю. 1988. Эмотивность и эмотсиональность: две научные парадигмы. Психолингвистические исследования значения слова и понимания текста. Калинин: Наука.
- Постовалова, В. И. 1999. Лингвокултурология в свете антропологической парадигмы. Фразеология в контексте культуры. Москва: Языки русской культуры.
